

Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining Maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish bo'yicha savollar bazasi

I. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish bo'yicha savollar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030 strategiyasi" PF-158-son farmonida maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish va bolalarni to'liq qamrab olishni ta'minlash bo'yicha maqsadda qanday ishlar belgilangan?
2. Bugungi kunda jamiyatimiz rivojlanishi uchun bolalarga maktabgacha ta'lim berishning ahamiyati nimada?
3. O'zbekistonda kichik yoshdagi bolalarning erta rivojlanish sohasiga kirishni tezlashtirish va sifatini oshirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarda bolaning ijtimoiylashuvi masalasida fikringiz?
5. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarda maktabgacha yoshdagi bolalarning sifatli ta'lim-tarbiya olishi bosh omil ekanligiga munosabatingiz qanday?
6. MTTda ta'lim jarayonini tashkillashda qo'yiladigan hozirgi zamon talablari.
7. MTT tarbiyachisining zamonaviy yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan xabardor bo'lishi.
8. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan kasbiy faoliyatda foydalanish.
9. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy faoliyatlarda ta'lim resurslaridan samarali foydalanish.
10. Yangi innovatsiyalarni kasbiy faoliyatda qo'llashda horij mamlakatlari maktabgacha ta'lim tizimini o'rganish.
11. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari.
12. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va turlari.
13. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarda ta'lim-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv haqida umumiy ma'lumot.
14. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarda ta'lim -tarbiya tizimiga innovatsion yondashuv va uning mazmun mohiyati.
15. Maktabgacha ta'limda bolalarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy-innovatsion usullardan foydalanish.
16. Maktabgacha ta'limda bolalarga ta'lim-tarbiya berishda zamonaviy ta'lim vositalardan hamda zamonaviy-innovatsion usullardan foydalanish.

17. Axborotlashgan jamiyatda yoshlarda ma'naviy madaniyatni shakllantirish.
18. Maktabgacha ta'lim standarti va undagi rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga qo'yiladigan talablar.
19. MTTda ta'lim jarayonini tashkillashda qo'yiladigan hozirgi zamon talablari.
20. "Ilk qadam" o'quv dasturini pedagogik jarayonga tadbiq etishning mazmuni.
21. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat ta'lim standartlari to'g'risida
22. "Ilk qadam" davlat dasturi maktabgacha ta'limning sifatini oshirishga qaratilgan davlat hujjati sifatida.
23. "Ilk qadam" davlat dasturi asosida bolar uchun rag'batlantiruvchi o'qitish muhitini yaratish.
24. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.
25. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Kontseptsiyasi.
26. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida "Ilk qadam" dasturining ahamiyati.
27. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim-tarbiya to'g'risida"gi qonuni
28. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida asosiy prinsiplar qatorida berilgan "ilk yoshdagi bolalarga ta'lim, tarbiya berish va ularni sog'lomlashtirishning, oila hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyaviy ta'sirining birligi" ni sharhlang.
29. "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartlari"da MTTning ota-onalar bilan o'zaro hamkorligining qanday shakllari belgilangan?
30. "Ta'lim to'g'risidagi qonun"ning 30-moddasi orqali farzandlar tarbiyasi va ularning ta'lim olishlari, qonuniy huquqlari va manfaatlari himoyasi borasida ota-onalarning o'rni va javobgarligi oshirildi, suzning munosabatingiz?
31. Maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim tashkiloti yoki oilada maktab ta'limiga tayyorlash masalasida fikringiz?
32. Maktabgacha ta'lim tashkilotining oila bilan ishlash tizimidagi ishlar mazmuni nimalardan iborat?
33. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mahalla hamkorligida MTTga qamrab olinmagan bolalarni aniqlash.
34. Ota-onalarni maktabgacha ta'limga jalb etish maqsadida olib boriladigan ishlar qaysilar?
35. Bolalarni maktabga muvoffaqiyatli tayyorlashda ota-onalarning roli.
36. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash.
37. Nosog'lom oilalar bilan ishlashda Maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda mahalla hamkorligi.
38. Nosog'lom oilalarga tashrif buyurishda MTT va mahalla hamkorligi.

39. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oila va mahalla integratsiyasi: ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etish muammolari.
40. Maktabgacha ta'lim - uzluksiz ta'limning alohida turi sifatida.
41. Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari to'g'risida"gi buyrug'i haqida ma'lumot bering.
42. Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi 99-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari to'g'risida"gi buyrug'i asosida Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining ish hujjatlari ro'yxatida necha turdagi yig'ma jild belgilangan?
43. Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti Pedagogik kengashi hujjatlari haqida ma'lumot bering.
44. Umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti (bolalarni boshlangich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhi) tarbiyachisi hujjatlari haqida ma'lumot bering.
45. Kreativ ta'limdan maktabgacha ta'lim tizimida foydalanish haqida ilmiy pedagogik tushuncha bering.
46. Tarbiyachining kompetensiyasi haqida ma'lumot bering.
47. So'nggi yillarda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim qamrovini kengaytirish bo'yicha qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
48. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi"da Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish borasida qanday maqsadlar belgilangan?
49. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan teng foydalanishini ta'minlash maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
50. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

II. Bakalavriat ta'lim yo'nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish) bo'yicha savollar.

1. Zamonaviy tarbiyachi portretini qanday tasavvur qilasiz?
2. Tarbiyachining pedagogik etikasi va pedagogik nazokati.
3. Tarbiyachi va uning jamiyatda tutgan o'rni.
4. Buyuk ajdodlarimizning tarbiyachi shaxsi ahamiyati haqidagi fikrlari.
5. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining lavozim vazifalari.
6. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisiga qo'yilgan malaka talablar.

7. Pedagogik qobiliyat va uning asosiy turlari.
8. Tarbiyachining nutq texnikasi va madaniyati.
9. Pedagog-tarbiyachining ijodkorlik sifatleri.
10. Kreativ yondashuv asosida bolalar faoliyatlarini tashkil etish
11. Pedagog-tarbiyachining kommunikativ qobiliyati, kreativligi, kasbiy kompetensiyasi.
12. Maktabgacha ta'lim tashkilotida yuritiladigan ish hujjatlari.
13. MTT tarbiyachisining ish hujjatlari
14. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining maqsadi va vazifalari.
15. Maktabgacha yoshdagi bolaning(6-7yosh) tayanch kompetensiyalari.
16. Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyasi.
17. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasi.
18. Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni to'g'ri tashkil etish.
19. Tarbiyachining shaxsiy ish rejasining tuzilmasi.
20. Guruhning kun tartibini to'g'ri rejalashtirish.
21. Maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari.
22. Ta'limiy faoliyat ishlanmalar tuzishda pedagogning kreativligi.
23. AKT vositalari orqali yangi mavzularni bola ongiga yetkazish yo'llari.
24. Rivojlanish markazlari va umumiy guruh bo'lib tashkil etiladigan ta'limiy faoliyatning bog'liqligi.
25. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining portfoliosini shakllantirish.
26. Ta'limiy faoliyatda pedagogning boshqaruvchanligi.
27. Muammoli vaziyatlarni hal etishda tarbiyachining pedagogik qobiliyati
28. Tarbiyachi nazokatida dilkashlik va pedagogik takt.
29. Tarbiyachining etik va estetik tarbiyasi
30. Pedagog – ijodiy faoliyat tashkil etuvchisi.
31. Tarbiyachining bolalar jamoasini uyushtirish olish qobiliyati
32. O'zbekistonda xorijiy tajriba asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni yaratish masalalari.
33. Tarbiyachilarda odob qoidalarini shakllantirish.
34. "Kompetentlik" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalari.
35. Kasbiy kompetentlik turlari.
36. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish.
37. Pedagogning individual rivojlanish dasturi.
38. Muammoli vaziyat yaratish usullari.
39. Muammoni yechish taxminlarini shakllantirish.
40. Pedagogning kasbiy imidji mazmuni

41. Tarbiyachi nutqining to'g'riligi, aniqligi, mantiqiyliigi.
42. Tarbiyachi nutqining tozaligi va ta'sirchanligi.
43. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi taraqqiyotining ayrim masalalari.
44. Faoliyatlarda tarbiyachining yetakchilik roli va uni o'tkazishga tayyorgarligi.
45. Pedagog-tarbiyachining kreativligi.
46. Pedagog-tarbiyachining kasbiy kompetensiyasi.
47. Tarbiyachining AKT vositalari orqali yangi mavzularni bola ongiga yetkazishi.
48. Tarbiyachining maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boradigan ijtimoiy-pedagogik faoliyati.
49. Tarbiyachining bolalar va ota-onalarga psixologik-ijtimoiy yordami.
50. Tarbiyachi shaxsida ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlikni rivojlantirish.

III. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishlash va ijodkorlik qobiliyatlarini aniqlash bo'yicha savollar.

1. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mezonlarini bilasizmi?
2. Mantiqiy fikrlashning rivojlanganlik darajasini belgilovchi mezonlar bormi?
3. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish mezonlari.
4. Mantiqiy fikrlashni aniqlash va rivojlantirish usullari o'rtasida qanday farq va o'xshashlik mavjud?
5. Tarbiyachi mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirib borishi bilan qanday ko'nikmalarga ega bo'ladi?
6. Rezyume nima va u nima uchun kerak?
7. Ma'lumotnoma (Obyektivka) nima?
8. To'g'ri rezyume tuzishda qanday jihatlarga e'tibor qaratish zarur?
9. Maqsadni to'g'ri shakllantirishning zaruriy talablari nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Kreativlik nima va uning tarbiyachi faoliyatidagi ahamiyati?
11. Shaxsiy rivojlanishni rejalashtirish maqsadi va mohiyati.
12. Vaqtni boshqarish nimaga kerak?
13. Nima uchun ta'lim sohasida ham ta'sirchan nutqning, notiqlikning o'rni va ahamiyati katta?
14. Mantiqiy savollar nimalarga qaratilgan bo'ladi?
15. Muammoli savol – kazu nima?

16. Mantiqiy fikrlashni qanday usullar orqali rivojlantirish mumkin?
17. Tarbiyachi mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi bilan qanday ko'nikmalarga ega bo'ladi?
18. Haqiqiy lider (yetakchi) qanday bo'lishi kerak?
19. Yetakchilikning asosiy ko'nikmalari nimalarda namoyon bo'ladi?
20. Tarbiyachilar uchun kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish qanday ahamiyat kasb etadi?
21. Kreativlik tarbiyachilar uchun qanday ahamiyat kasb etadi?
22. Vaqtni boshqarish ko'nikmasi va undan foydalanish tarbiyachilar uchun qanday afzalliklarga ega?
23. Simpatiya, antipatiya va empatiya tushunchalari o'zaro munosabatlarda qanday rol o'ynashini alohida-alohida tushuntirib bering.
24. Jamoa lideri qanday asosiy funksiyalarni bajaradi?
25. Rahbar va lider tushunchalari o'rtasidagi qanday mushtarak va farqli jihatlar mavjud?
26. Kasbga sadoqat, mas'uliyat va halollik – tarbiyachi kasbida qanday ahamiyatga ega?
27. Tarbiyachining o'ziga xos odob-axloqi, ma'naviy tamoyillari va boshqa kasbiy fazilatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
28. Pedagog etikasi haqida nimalarni bilasiz?
29. Nima uchun tarbiyachida to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish kerak?
30. Tarbiyachining professional faoliyatida shaxsiy fazilatlar qanday ahamiyatga ega?
31. Shaxsiy kunlik rejangizni tuzayotganingizda asosiy va ikkilamchi vazifalarni ado etishda “vazifalarni bo'lish” qoidasini amaliy misollar yordamida yoritib bering.
32. Oldingizga qo'ygan eng asosiy maqsad va unga erishish yo'lida amalga oshirilishi zarur bo'lgan kichik maqsadlaringizni bayon qiling.
33. Sizni o'rab turgan muhitda o'z ishlaringizni rejalashtirib yurishingizga qaramay ayrim omillar tufayli vaqtingiz rejadan tashqari ishlarga sarflanadi. O'z shaxsiy misolingizda shunday holatlarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha qanday takliflarni aytgan bo'ladingiz?
34. Jamoa muvaffaqiyatga erishishi uchun jamoa yetakchisi – liderning ahamiyati katta. Jamoani muvaffaqiyatli boshqarishda liderning vazifalari, xatti-harakati va yetakchilik sifatlarini tahlil qiling.
35. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotingizdagi o'rnini qanday? Siz ulardan qanday maqsadlarda foydalanasiz?
36. Fuqarolarda oddiy madaniyat ko'nikmalarini shakllantirish uchun nimalar qilish lozim, deb hisoblaysiz?

37. Tarbiyachining muomala madaniyati va uning etiket jihatdan barkamol bo'lishi lozimligi yuzasidan fikrlaringizni yoritib bering.
38. Yoshlarning ma'naviy kamol topishiga salbiy ta'sir etuvchi omillar yuzasidan fikr va mulohazalaringizni bildiring.
39. Yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish orqali ayrim muammolarga yechim topish mumkinmi?
40. Sizningcha, qanday omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi?
41. Shaxsiy rivojlanish rejasini tuzishda shaxs o'zini o'zi real baholashi qanchalar muhim? Fikringizni hayotiy misollar bilan asoslang.
42. Tarbiyachi faoliyatida shaxsiy rivojlanishning aniq rejasiga ega bo'lish unga qanday imkoniyatlar yaratadi, deb hisoblaysiz?
43. Injiq bola guruhingizga kelganda uni tinchlantirish uchun qanday yo'l tutasiz? O'zingizning tajribangizdan kelib chiqib misollar keltiring.
44. Sizningcha tarbiyachilik oson kasbmi yoki qiyin kasb? Javobingizni izohlab bering.
45. Ota-onalar bilan nizolar paydo bo'lganda sizning harakatlaringiz?
46. Tarbiyalanuvchingiz bog'chaga doimiy kech qolib keladi. Sizning harakatlaringiz?
47. Ota-onalar bilan "+" ijobiy munosabatni o'rnatishda qanday yo'l va usullardan foydalanasiz?
48. Nima uchun aynan MTT tarbiyachisi kasbini tanladingiz?
49. Siz kelajakda qanday tarbiyachi bo'lar edingiz? Birini tanlang va izohlang ("Sevimli tarbiyachi", "Bolajon tarbiyachi", "Shunchaki tarbiyachi", "Qattiqqo'l tarbiyachi", "Tartibsevar tarbiyachi")
50. Sizga boshqaruv taklif etilganda, boshqaruvchilik faoliyatingizni qanday tashkil etasiz? (bosqichma-bosqich izohlang)

IV. Tanlangan bakalavriat ta'lim yo'nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligini aniqlash bo'yicha savollar.

1. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlanish tarixi.
2. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tuzilishi va turlari
3. Sharq va G'arb mutafakkirlarining farzand tarbiyasi haqidagi ta'limotlari
4. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish haqida.
5. Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta'lim-tarbiyasining o'ziga xosligi.
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari va ularning bola sog'lom rivojlanishidagi ahamiyati.

7. Maktabgacha ta'lim davrida yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlari.
8. Shaxs rivojlanishi haqida tushuncha.
9. Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar: irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiya.
10. Shaxsni rivojlanishida tarbiyaning o'rni.
11. Bolani tarbiyalash va rivojlanishida faoliyatlarning o'rni.
12. Maktabgacha yoshidagi bolalar ta'lim-tarbiyasi.
13. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tashkil etiladigan tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri.
14. Maktabgacha ta'limda tarbiya berish usullari va vositalari.
15. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim shakli.
16. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mashg'ulot (faoliyat) turlari.
17. Ta'limiy faoliyatlarning bolalarni maktabga tayyorlashdagi ahamiyati.
18. Ta'limiy faoliyatlarda tarbiyachining yetakchilik roli.
19. O'z-o'ziga xizmat qilish, topshiriqlarni bajarish, yakka tartibdagi mehnat, qo'l mehnati, navbatchilik, jamoa mehnati.
20. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida faoliyat markazlarida maktabgacha yoshdagi bolalar mehnatini tashkil qilish.
21. O'yin bola faoliyatining asosiy turi sifatida.
22. O'yinning kelib chiqish tarixi.
23. O'yin turlari.
24. Ijodiy o'yinlar.
25. Qoidali o'yinlar bolalarga ta'lim berish shakli sifatida.
26. Didaktik o'yin turlari.
27. Buyumlar bilan o'ynaladigan o'yinlar.
28. Stol ustiga qo'yib o'ynaladigan o'yinlar.
29. Og'zaki didaktik o'yinlar.
30. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash nazariyasi.
31. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab dasturlaridagi izchillik.
32. Bolani maktab ta'limiga psixologik tayyorlash.
33. Yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rni haqida mutafakkirlar ta'limoti.
34. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga qamrab olinmagan bolalar ota-onalari bilan ish yuritish shakllari.
35. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan ota-onalar bilan ishlash.
36. Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik jarayonni tashkil etish.
37. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kunning birinchi va ikkinchi yarmida bolalar hayotini tashkil qilish.
38. Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil qilish.
39. Maktabgacha ta'lim tashkilotida qisqa muddatli guruhlarini tashkil qilish va bir yillik "Ilm yo'li" variativ dasturi.

40. Turli tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari tashkiliy tuzilmasi.
41. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ekskursiyani o'tkazish mazmuni.
42. Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning ahamiyati.
43. Bolalarni maktabga tayyorlashda tabiat bilan tanishtirish metodikasining roli .
44. Maktabga tayyorlashda nutqni rivojlantirish usullari.
45. Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida maktab ta'limi uchun beriladigan ilk malaka-ko'nikmalar.
46. Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik tarbiyasi.
47. Estetik tarbiyaning vazifalari.
48. Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni erta aniqlash va yo'naltirish.
49. Bolalarda kitob o'qishga qiziqishni uyg'otish.
50. Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy asarlar va xalq og'zaki ijodi orqali tarbiyalash.